

“TASDIQLANGAN”

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti Kuzatuv kengashining
2022 yil “27” maydagi
1-son Bayoni bilan

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Kuzatuv kengashining
Nizomi**

Toshkent – 2022

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda PQ-60-sonli "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda 2021 yil 24 dekabrda PQ-61-sonli "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (keyingi o'rinlarda "Universitet" deb yuritiladi) Kuzatuv kengashi (keyingi o'rinlarda "Kengash" deb yuritiladi) faoliyatini tartibga soladi.

2. Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek Universitet Ustavi va ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

3. Kengash yuridik shaxs hisoblanmaydi va davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi. Kengash o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

4. Ta'lim jarayonida ijtimoiy sheriklik tamoyillarini samarali amalga oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash, Universitetning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta'lim jarayonini takomillashtirish va strategik rivojlantirishni ta'minlash Kengashning asosiy maqsadlari hisoblanadi.

5. Kengash tarkibining eng kamida 70 foizi vazirlik va idoralar, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda jamoatchilik vakillari, homiylar, shuningdek Universitet faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan boshqa jismoniy va yuridik shaxslar (jumladan, kadrlar buyurtmachilari) ishtirokida shakllantiriladi.

6. Kengash tarkibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

7. Kengash o'z faoliyatini qonuniylik, oshkoralik, mustaqillik, masalalarni erkin muhokama qilish, kollegiallik va yakkaboshlikning uyg'unlashuvi, jamoa fikrini hisobga olish tamoyillari asosida amalga oshiradi.

II. Kengashining asosiy vazifalari va vakolatlari

8. Quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- Universitet ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavr va magistrLAR tayyorlash sifati hamda ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini baholashning zamonaviy tizimini tashkil etish;

- ta'lim jarayoni sifati va natijadorligini oshirish, kelgusida mehnat bozori rivojlanishini hisobga olgan holda mutaxassislar va ilmiy-texnika kadrlarini tayyorlashning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash;

- mutaxassislar tayyorlash sifatiga ko'maklashadigan istiqbolli dasturlarni moliyalashtirish manbalarini shakllantirish;

- ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish, fundamental (amaliy) ilmiy-texnika ishlanmalarini amalga oshirish, o'quv va ilmiy jarayonlarni hamda amaliyotni oqilona integratsiyalash;

- pedagog kadrlarining mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda ularning malaka oshirish va qayta tayyorlashdan o'tishlarini tashkil etish;

- Universitet faoliyatini izchil rivojlantirish maqsadida homiylik ko'magi, texnikaviy yordam (grantlar) mablag'lari va boshqa budjetdan tashqari mablag'larni jalb etish;

- eng avvalo, ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda nogironligi bo'lgan bolalar jumlasidan bo'lgan talabalarni ijtimoiy himoyalashni ta'minlash, iqtidorli talabalarga Universitet stipendiyalari va grantlar ajratish;

- iqtidorli talabalarni yetakchi xorijiy ta'lim muassasalariga o'qishga, tajriba orttirishga yuborish bo'yicha takliflarni shakllantirish, ular uchun maxsus stipendiyalar ta'sis etish;

- Universitet professor-o'qituvchilari, doktorantlari, izlanuvchilari va talabalari uchun xalqaro tajriba almashuvlarni tashkil etish borasida ko'maklashish;

- o'qitishning ilg'or shakl va usullarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, elektron ta'lim resurslarini ta'lim jarayoniga joriy etish, shu jumladan, yuqori tezlikdagi internet tarmog'idan foydalanilishini hamda zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

- ta'lim jarayonini hamda talabalarining ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etish va takomillashtirish;

- Universitetning moddiy-texnika, o'quv-metodik bazasini mustahkamlash, ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish, binolarini muvofiqlashtirish, hududlarni obodonlashtirish va boshqalar.

9. Kengash Universitetning o'zini o'zi moliyalashtirish tizimi doirasida quyidagi vakolatlarga ega:

- Universitetning strategik rivojlantirish dasturini tasdiqlash, xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining yuqori o'rinlardan joy olish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni belgilash hamda uning amalga oshirilishini nazorat qilib borish;

- Universitetning o'rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish;

- ta'lim yo'nalishlari va ixtisosliklar bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish;

- Universitet oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosi, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish holati bo'yicha rektor va prorektorlar axborotini eshitish;

- Universitetning ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatiga moliyaviy nazorat o'tkazish uchun qo'shimcha topshiriq berish hamda nazorat tadbirlarining natijasi yuzasidan hisobot olish;

- ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, universitetning innovatsion va boshqa jamg'armalar mablag'larini sarflash tartibi va yo'nalishlarini belgilash;

- oliy ta'lim muassasasi rahbari va xodimlari hamda professor-o'qituvchilari faoliyatiga baho berish, ular faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tasdiqlash;

- Universitet hamda uning huzuridagi ta'lim va ilmiy muassasalarining rahbar va xodimlari, professor-o'qituvchilari, shuningdek, ilmiy-pedagogik faoliyatga jalb qilingan xorijiy mutaxassislar uchun mehnatga haq to'lash miqdori va samaradorlik mezonlariga asoslangan rag'batlantirish tartibini belgilash;

- Universitetning budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibini, shu jumladan xarajatlarning taqsimlanish ulushini belgilash.

10. Kengash o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida:

- Universitetdan o'z vakolati doirasida zarur ma'lumot va axborotlarni belgilangan tartibda oladi;

- Kengash to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

- Universitetda kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, shuningdek Universitet rektoriga xodimlar va talabalarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish to'g'risida tavsiyanomalar beradi.

Universitet rektori Kuzatuv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi

Kuzatuv kengashi amaldagi qonunchilik hujjatlariga, o'z Nizomiga va universitetning Ustaviga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

III. Kengashi faoliyatini tashkil etish

11. Kengash a'zolari uning vakolatiga tegishli masalalarni hal etishda teng huquqqa egadirlar.

Kengash - rais, rais o'rinbosari, ma'sul kotib va a'zoldan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Kengashning son tarkibi tartibga solinmaydi, biroq o'n bir nafar a'zodan kam hamda juft sonda bo'lishi mumkin emas. Kengash tarkibi va rahbariyatidagi o'zgarishlar, zarurat bo'lganda, bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

Kengash a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda ushbu lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar tomonidan Kengashga a'zolik vazifalari davom ettiriladi.

Kengash qarori Kengash majlisida qatnashgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda Kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Kengash raisi ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas.

Kengash majlisi unda Kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Majlisni o'tkazish uchun kvorum yoki rais va uning o'rinbosari bo'lmaganda Kengash majlisini o'tkazishning yangi sanasi e'lon qilinadi.

Kengash o'z vakolatlarini universitet rektoriga berish huquqiga ega emas.

12. Kengash raisi:

Kengash majlisi kun tartibini belgilaydi va uni chaqiradi;

Kengash qarorlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

Kengashning yillik ish rejasini tasdiqlaydi, shuningdek yillik ish rejasining bajarilishi to'g'risidagi hisobotni Kengash muhokamasiga qo'yadi;

Kengash a'zolariga yuklangan vazifalar bajarilishi yuzasidan ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

davlat organlari va boshqa tashkilotlarda Kengash nomidan vakillik qiladi;

Kengashning samarali ishlashini ta'minlash uchun boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

13. Kengash majlisini Kengash raisi, u bo'lmagan taqdirda esa – Kengash raisining o'rinbosari olib boradi.

14. Kengash a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

- Kengash majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal etishda qatnashish;

- Universitetda (shuningdek uning tarkibidagi ta'lim muassasalarida) ta'lim jarayonini rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha Kengashga takliflar kiritish;

- Kengash tomonidan ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha xulosa taqdim etish;

- Kengash a'zoligi doirasida Universitet hamda uning tarkibidagi ta'lim muassasalari faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni talab qilib olish.

15. Kengash a'zolari majlisda shaxsan yoki video-konferensiya aloqa rejimida qatnashishi kerak. Bunday qatnashishning imkoni bo'lmagan taqdirda Kengash a'zosi majlisning kun tartibi bo'yicha o'z fikrini Kengashga yozma ravishda taqdim etishga haqlidir.

Kengash a'zosi kengashning yig'ilishlarida surunkali 3 marta uzrli sabablarsiz ishtirok etmagan taqdirda, u Kengash a'zolari tarkibidan chiqarilishi mumkin.

16. Kengash o'z faoliyatini tasdiqlangan rejalar asosida amalga oshiradi va o'z majlislarini zaruratga ko'ra har yilda kamida bir marta o'tkazadi.

Kengash raisi tomonidan Kengash a'zolarining yozma iltimosnomalari asosida navbatdan tashqari majlislar chaqirilishi mumkin. Iltimosnomalarda navbatdan tashqari majlisni chaqirishning sabab va asoslari bayon qilinishi kerak.

17. Kengash majlisida ko'rib chiqiladigan masalalarning xususiyatiga ko'ra davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbar va mutaxassislari, Universitet xodimlari, boshqa shaxslar taklif etilishi mumkin.

18. Kengash ma'sul kotibi bir vaqtning o'zida Kengash a'zosi hisoblanadi va unga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- Kengash faoliyatini tashkiliy-texnik tomondan ta'minlash;
- Kengash majlisini o'tkazish muddat va joyini Kengash raisi bilan kelishish;
- Kengash majlisi kun tartibidagi masalalar bo'yicha Kengash majlislari o'tkazilishini tashkil etish;
- Kengash majlisiga barcha zarur hujjatlarning o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlash;
- Kengash raisiga barcha zarur hujjatlarning loyihasini Kengash majlisi o'tkaziladigan sanagacha kamida 7 ish kunidan avval yetkazishni ta'minlash;
- Kengash a'zolari va taklif etilgan shaxslarni majlisning sanasi, kun tartibi loyihasi, majlisni o'tkazish vaqti va joyidan xabardor qilish;
- Kengash bayonnomalarini rasmiylashtirish va tasdiqlangan bayonnomalarni Kengash a'zolari va boshqa manfaatdor tashkilotlar hamda jismoni shaxslarga yuborish.
- Kengash qarorlari bajarilishi monitoringini yuritish.

19. Kengash o'z faoliyatini universitet rektori bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

20. Kengash bayonnomasining asl nusxasi va uning materiallari Universitetda saqlanadi.

Universitet rektori Kengash hujjatlarining saqlanishini ta'minlash uchun ma'sul hisoblanadi.

IV. Kengash faoliyatini tugatish

21. Kengash o'z vakolati doirasiga kirmaydigan ishlarga aralashsa yoki o'z vazifalarini to'liq ta'minlay olmasa, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri buyrug'i asosida tarqatib yuborilishi yoki tugatilishi mumkin.

22. Kengash tarqatib yuborilgan yoki tugatilgan taqdirda Universitet mablag'larini boshqarish vakolati Kengashning yangi tarkibi shakllantirilgunga qadar Universitet Ilmiy kengashiga o'tkaziladi.

V. Yakuniy qoidalar

23. Kengash a'zolari mazkur Nizomda belgilanmagan vakolatlarga ega bo'lishlari hamda Universitet rektorining qonunchilik hujjatlarida belgilangan vakolatlariga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

24. Kengash faoliyatiga davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimliklar va boshqa tashkilotlar aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

25. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

26. Mazkur Nizom tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.